

## LIRIK KECHINMA TABIATIDA “MEN” TUSHUNCHASI TALQINI

Ahmadalievna Mahliyo Sheralievna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Maqolada lirik kechinma tabiatida “men” tushunchasining talqini haqida soʻz boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida bir necha adib va adibalarning badiiy asarlari tahlil qilingan. Kalit soʻzlar; adabiyot, estetik idrok, sherlar, “men” tushunchasi, badiiy borliq.*

## INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF «I» IN THE NATURE OF A LYRICAL EXPERIENCE

Ahmadalievna Mahliyo Sheralievna  
Researcher of Chirchik State Pedagogical University

*Abstract. The article talks about the interpretation of the concept of «I» in the nature of lyrical experience. In order to reveal the content of the article, the artistic works of several writers have been analyzed.*

*Keywords; literature, aesthetic perception, poems, the concept of «I», artistic existence.*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ «Я» В ПРИРОДЕ ЛИРИЧЕСКОГО ОПЫТА

Ахмадалиева Махля Шералиевна  
научный сотрудник Чирчикского государственного педагогического университета

*Абстракт. В статье говорится об интерпретации понятия «Я» в природе лирического опыта. С целью раскрытия содержания статьи проанализировано художественное творчество ряда писателей.*

*Ключевые слова; литература, эстетическое восприятие, стихи, концепция «Я», художественное существование.*

Badiiy ijod qonuniyatlarini teran tahlil qilganingiz sari uning siru asrori, koʻrku malohati, jozib latofati ochila boradi. Shoira Zulfiyaning estetik idroki shunchalar joʻshqin va tushkin, biri-ikkinchisiz yashay olmaydigan predmetlardan tarkib topganki, uning haroratini his qilmoq uchun shoira qalb dunyosiga yanada yaqinlashmoq joiz. Chunki lirik matn tabiatida – kechinma estetik tanlovi turadi. Bu tanlov hayotiy mushohadaning nechogʻli samimiy, haqqoniy, taʼsirli, ohangdorlik kasb etishi bilan maʼlum maʼnoda tutashib ketadi. Shoira sheʼrlarini yagona bir sistem olam, yaxlit bir badiiy borliq deb qaraydigan boʻlsak, tabiiy jarayonga jonlantirish har zamonda qoʻllaniladigan hodisa emas, u butun borliqni jonli tarzda tasavvur qilganligining shohidi boʻlamiz.

Mashhur psixoanalitik Zigmund Freyd insonning tana aʼzolaridagi xastalikni sheʼr orqali ham davolash mumkin ekanligini alohida taʼkidlab oʻtadi. Sheʼrning ruhiy parvozi ham inson irodasining qanchalik matonatli va chidamliligi bilan ham belgilanadi. Ruhiy chidamlik har qanday ogʻiriqlarni, iztiroblarni yengib oʻtishga qodir. Tafakkurning bepayon parvozlari fazoviy boʻshliqlarni zabt etadi, unga maqsad nazari bilan erishiladi. Deylik, shoira Zulfiya optimistik kayfiyat bilan sheʼrlar yozmaganida edi, bunday tavsiflarni yevropalik olimlar nazariyasi orqali taʼriflagan boʻlar edik. U oʻziga madad soʻrgan kuchdan ilhomlanadi. Har lahzada Yaratganning istagiga qarshi chiqmaydi. Faqat “sheʼriy asarlarida” ayriliqning, hijronning diliga jo qilgan manzarasini, taqdir hukmi deya musavvirova chizishga erishadi. Obrazli tafakkur negizida qalb kechinmalari yanada reallasha boradi. Bunday qarashlar psixolog Otto Rank talqinida ham kuzatiladi: “Sanʼatkor madaniy hayotimizga dushman boʻlgan yovuz instinktlarimizni tinchlantirib, ularni ezgulik yoʻliga burib yuboradi. U bizni ichki zulmdan qutqarib, ham koʻnglimizni xursand etadi”[1]. Haqiqatan ham, sanʼatning bosh maqsadi ham insoniyatga ezgulikdan saboq berish, yovuzlik ustidan tantana qilishdir. Lirikada oʻquvchi koʻnglini poklaydigan “najotbaxsh maʼno” oʻz tajassumini topadi. Shoira Zulfiya lirikasining muhabbat haqidagi bitiklarida hijron vahmi qizil ip boʻlib oʻtib turadi. Uni bir koʻzgu deb olib qarajak, najotbaxsh maʼnolarni ilgʻab olamiz. Visol tushunchasi shunchaki maishiy mazmun kasb etmay, ilohiy tuygʻular bilan yaxlitlashadi. Bu mutanosiblik Freyd talqinicha – saʼnatdan olingan haqiqiy estetik zavq deb ataladi.

Lirik kechinma asosida yuqorida taʼkidlanganidek, peyzaj tasviri turadi. “Har bir landshaft ruhiy

holat demakdir” (Gyote). Bu purma’no naqldan peyzaj orqali taiatni jonlantirish va tabiiy borliq ichida ruhiy olamni joylashtirish san’ati anglashiladi”[2]. Darvoqe, mavjud tushuncha zamirida poetik olamning ranginligini kuzatish qiyin emas. Shoira Zulfiya ham tabiatning ayovsiz iqlimini, qish, bahor va yoz tarovatini kuzatish va baholash zimmida nozik sezimlar bilan idroklashga erishadi. Chunki tabiatni qalb ko’zi bilan kuzatish, unga orginal ma’no yuklay olish uchun ijodkorning badiiy tafakkur darajasi, iste’dod, salohiyati juda baland pardalarda parvoz etmog’i shart bo’ladi. Shoira ana shunday intim kechinmalarga umuminsoniy qadriyatlarni joylay olganligida kuzatish mumkin. Demak, insoniy munosabatlar, odamlarning o’zaro fikr almashishi, yashash sharoiti, orzulari, armonlari, kechmishlari, hatto o’tmishi ham tabiat bilan bog’liq. Usiz hayot rangsiz va mazmunsizdir. Lirika ham xuddi mana shu tomonlari bilan qalbgga kirib boradi. Shoira nazdida inson tabiat mo’jizasining bir bo’lagidek go’yo. Ayniqsa, bahorning husni tarovati uning estetik qadriyatlarni nozik mushohada sahniga olib chiqqanligida o’ziga xos ahamiyat kasb etgan:

Uyda bo’g’ildimu chiqdim eshikka,  
Yer ustiga cho’kkan oqshomgi tuman.  
Go’yo ko’zlarimga boqqanday tikka,  
Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon.

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,  
Ayji chiqqanida so’nadi u ham,  
Bir yupanch: sevgimning osmonidan  
O’chmasdan yonasan, ey go’zal hamdam!

“Oshiqning qalbiga” yaqin za’faron tuyg’ular, aslida shoira muhabbatining pok va beg’uborligini tasdiqlamoqda. Tuyg’ulari bo’g’ilgan lahzada tun masha’li yulduzlarga yukinish – lirik qahramonga saodat tuhfa etayotgandek. “Ko’zlarga tikka boqqan yulduz”ni u muhabbatiga qiyoslaydi. Shu kayfiyat unga shodlik va yupanch hadya qilmoqda. Bular insoni irodasining o’ziga tabiat hodisalaridan, fazo jismlaridan taskin topishi mangu ayriliqni biroz yumshatgandek. Lirik qahramon yana u bilan suhbatda. “Senday uzoq va senday yorqin” satrida inson istaklarining naqadar ranginligi, umid tamoman yo’qolib ketmasligiga mantiqiy ishora mavjud. Unda bashariyat istaklari mujassam. “Bir yupanch: sevgimning osmoni”da faqat o’zing dardi holimga yupanch bo’lishing mumkin, bunda o’chmas yoding va xayoling menga bir umr hamdam bo’ladi demoqda. “Yulduz” deb nomlangan she’rda qahramon o’y-xayollarining tizginsiz mushohadalari inkishof qilingan. Jamiki ezgu insoniy fazilatlar lirik kechinmada o’ta haroratli va samimiy ifoda markaziga tortilgan. Bunday tavsiflash shoira Zulfiya lirikasining markazida fenomen bo’lib hisoblanadi. Kutilmagan zid, no zid atamalar negizida “vafo va sadoqat” timsolining poetik olamini kashf etish mumkin. Jumladan, real voqelik har bir she’rida yaqqol namoyon bo’ladi. Mavhum tushunchalarni, bosib o’tilmagan yo’llar, anglanmagan hissiyotlar, kechirilmagan taqdirar, kuztilmagan lahzalar shoira lirikasiga yot hodisa. Nimaiki, ro’y bermasin, o’zi yashab va his qilgan kayfiyatni, ruhiyat manzarasining tasvirini idroklash hayotiy a’moli sanaladi.

Ma’lumki, “ayriliq Zulfiyani bukib tashlay olmadi. Unda qodir bir ong, burch hissiyoti bosh ko’tardi. U Hamid Olimjon uchun ham yashash, yaratish, xizmat qilish tilagini yuragiga singdirdi. Bu katta ahd edi. Qarori qattiq ayolning, san’atkorning, onaning, ahdi. Zo’r kelajak bilan yashab, harakat qilib turgan zotning o’tolmagan burchini yelkaga olish oson emasdi. Buning uchun katta iqtidor, shijoat mardlik va iroda bo’lishi kerak”[6]. Darhaqiqat, mazkur tavsirlarda shoira Zulfiya ijodiy va hayotiy qarashlari ilgari surilgan. Olim haqli ravishda ta’kidlaganidek, uning tuyg’ularida nafosat va go’zallik, baxt va baxtiyorlik – mahzunlik va hijron soyasida qolib ketgan bo’lsa-da, yashashga kuch, ilohdan taskin so’rashi, “iltijoviy” yo’sinda aks ettirilgan. Matonatli o’zbek ayoli, sadoqati mangu “vafo timsoli” shoira Zulfiya estetikasida olimjonona ruh: soddalik va beg’uborlik, samimiylik va baxtiyorlik, jo’shqinlik va barhayotlik, go’zallik va nafosat, shodlik va quvonch tuyg’ulari yuksak mahorat bilan musavvirova nigoh bilan “chizib” berilgani yaqqol ko’z o’ngimizda namoyon bo’lib turibdi.

Odatda, ijodiy portretni faqatgina so’z va iboralar bilangina emas, to’rt misra she’riy matn orqali ifodalash ham mumkin. Shoira Shukrullo Zulfiyaga bag’ishlab to’rt misra she’r yozgan. Mazkur satrlarda Zulfiyaning xarakter qirrlari, matonatini tasvirlashga erishgan:

Barchinni bilaman. Ko’rmasdim ammo,  
She’r gulshanida sendek mardini.  
Koshki hamma sendek dilga qilsa jo,

Odamlar dardini do'stlar dardini.

Ushbu mo'jaz she'riy parchada shoira qalbining, hayot va ijod yo'lining butun iste'dodining qirralari "odamlar dardini" yelkalay olish, birovning mushkulini oson qilish fazilatlarini, chinakam ijodkorning ibratli manzaralari mamnuniyat ruhi bilan sug'orilgan. "Dunyoda insondan faqat yaxshilik qolishini, qo'lingdan kelganicha birovning kam-ko'stini to'ldirishga yordam ber, insonni ulug'la. Uning boshiga musibat tushsa darrov unga madadga shoshil" degan hikmatomuz fikrlarni ham shoira Zulfiya o'z ijodiy qarashlarida ifodalab ketdi.

Chinakam ijodkorning qismati hech qachon osonlikcha kechmagan. Davr va zamon muammolarini o'z qismatiga aylantirgan "yoniq va yorug'" qalblargina ijod baxtiga muyassar bo'ladi. Inson qalbining, ayniqsa, ayol ruhiyatini nozik sezimlar bilan inkishof qilgan "sadoqat va vafo" timsoli deya qadrlangan, e'zoz topgan shoira Zulfiya taqdirining murakkab va ziddiyatli lahzalari hamisha har birimizni o'ylashga undaydi. XX asr adabiyot tarixiga nazar tashlansa, bir qator ijodkorlar singari shoira Zulfiya ham murakkab hayot va ijod imtihonlarini boshidan kechirdi. Matonatli va irodasi mustahkam ayol tiyatida – o'zbek ayolining mehru muhabbati, insoniy fazilatlarini, jamiki ezgu amallari, sabr-bardoshi mujassam edi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Oddiy temirchi oilasida kamol topib, ijod olamiga kirib kelishining o'zi bir baxt va saodat nashidasi bo'lib qoldi. Lekin hayot imtihonlari, sinovlari borligini oldindan kim bilibdi deysiz? Hassos shoir, benazir siymo Hamid Olimjon bilan bor-yo'g'i to'qqiz yil birga umr kechirgan shoira qalbining eng nozik tuyg'ulari ham, irodasi ham umr yo'ldoshidan kutilmaganda ayrilgach, kanday kayfiyatda qolganligini tasavvur ham qilolmaymiz. Bosib o'tilgan sharafli yo'l, ijod mashaqqati, hayot sinovlari shoira Zulfiya lirikasining bosh mavzusi, "hijron va ayriliq" esa motivi bo'lib qoldi. Ana shu jarayonning faol ishtirokchisi ham, qahramoni ham shoira Zulfiya o'zi edi...

Xulosa shuki, inson tabiatiga daxldor eng muqaddas tuyg'ular (muhabbat, mehr-shafqat) ham boshga kulfat tushganda irodasi dosh berolmasa, siniq va aftoda holga tushishi tayin. Shuning uchun ko'pchilik ijodkorlar o'z qismatidan nolimaydi, boshiga yog'ilgan kulfatu uqubatlarni ijod qilish bilan yengib o'tadi. Ana shu murakkab mashaqqatlarni yengib o'tgan shoiralardan biri Zulfiyadir. Shoira Zulfiya har bir she'rida – sog'inch va qumsash, sadoqat va vafo tushunchalari o'ziga hos tarda poetik mushohada sahniga tortilgan. Bunda o'z taqdirining iztirob va quvonchlarini zukko o'quvchidan pinhon tutmay, go'zal badiiy-tasviriy vositalar bilan chizishga erishgan.

Alohida ta'kidlash joizki, shoira lirikasida "bahor" o'ziga xos shodlik va tarovat ulashvchi ilohiy ne'mat tarzida qadrlanadi. Bahorning kirib kelishi, Zulfiya hayotida armonning ushalishi, hijronning bir dam bo'lsa ham chekinish lahzasidir. "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'rik gullaganda...", "Sensiz" kabi she'rlari ushbu kayfiyatning mahsuli sanaladi. "Xasta tuyg'ular she'r yordamida go'zallikka aylantiriladi" (R.Rahmat). Shoira Zulfiya ham qalbini ayovsiz iztirobga solgan tuyg'ularni – she'rga aylantirdi. Bu bora-bora qismatga aylandi. Ijodkor she'r yozib o'quvchiga aql o'rgatmaydi. Shaxsiy-intim kechinmalar idrok, tasavvur, sezgi va ruhiy ehtiyoj tufayli she'rga aylanadi. Shoira Zulfiya ham o'z qismatining nechog'li ayriliq va musibatlarga to'laligina anglab yetmasin, baribir qalbidagi o'sha sezimlar hissiy idrokning bezovta bo'lishidan uni she'rga ko'chirishga talpinib yashagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳимжон Раҳмат. Дала гуллари. –Т.: 2006.
2. Акрамов Б. Шеърят гавҳари. –Т.: "Адабиёт ва санъат" нашриёти. 1979.
3. Ғафуров И. Вақт ва қалб. Зулфиянинг "Хаёллар" китобига ёзилган сўз боши. –Т, 1982.
4. Ғафуров И. Зулфия сиймоси. Шарқ юлдузи журнали. Т.: 2015.
5. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: «Фан», 2004.